XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-032-3-0-K/24 Jizzax viloyati

Jizzax viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Budjet kodeksining 27- va 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-1239/3-sonli xatida ko‘rsatilgan xulosa va takliflarni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26817-sonli xatini inobatga olib xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Jizzax viloyati mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **2 523,6 mlrd.so‘m** va xarajatlari **3 626,7 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **1 103,2 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **129,8 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Quyidagilar viloyatning viloyat budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1 iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi viloyatning viloyat budjetiga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar viloyatlarning viloyat budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig‘ining 30 foizi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budjeti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqli.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar budjetlariga to‘liq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetiga yo‘naltirishi taqiqlanadi (bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lgan shahar va tumanlar mustasno).

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika budjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy budjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga o‘tkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuliga qadar 2024-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkaziladi. Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024- va 2025-yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to‘lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Jizzax viloyatining 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga;

Jizzax viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

viloyatning viloyat budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari **4-ilova**ga;

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Jizzax viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi **6-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyatning viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **7 420,0 mln. so‘m** etib hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **7-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Jizzax shahri va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

Bunda davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlari joriy etilayotganligi, o‘tgan yillarda tuman (shahar) mahalliy budjetlaridan saqlab kelingan sog‘liqni saqlash tashkilotlarini saqlash xarajatlari viloyat mahalliy budjetiga o‘tkazilayotganligi munosabati bilan, tegishli Jizzax shahri va tumanlar budjetlarining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari, oldingi yildagi hajmdan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilsin hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi mablag‘larini kamaytirish hisobiga qoplansin hamda 2025 yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi miqdori **16,7 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

viloyat, tuman va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Mustanov, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Axmedov), viloyat Soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar 2025 yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash

hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Viloyat Soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi Jizzax viloyati boshqarmasi (Mengliev), viloyat Soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi (Isroilov) Bo‘sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Jizzax viloyat hududiy boshqarmasi (Xalikov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

13. Jizzax viloyati irrigatsiya tizimlari va havza boshqarmasi (Turdiboyev) va viloyat Soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (Qodirov), Adliya boshqarmasi (Ergashev) viloyatda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

15. Viloyat Soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (Boboqulov) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

16. Xalq deputatlari hududiy Kengashlari hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

17. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

18. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi (Mamatqulov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Jizzax viloyati boshqarmasi (Eshbekov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

20. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (Binokulov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Adilov), Davlat Soliq boshqarmasi (Tashpo‘latov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Axmedov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya pravda” gazetalarida rasmiy e′lon qilinsin hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Raxmonqulov) hamda

viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Mustanov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi

SHUKUROV PARDA
XXX

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun Jizzax viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi hamda 2026-2027-yillarga maqsadli moʻljallari

№	Koʻrsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	2026-yil uchun moʻljal	2027-yil uchun moʻljal
1	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.soʻmda	43 388,6	46 793,9	50 761,9
2	Yalpi hududiy mahsulotning oʻsish surʼati, foizda	107,6%	107,8%	108,5%
3	Isteʼmol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	x	x	x
4	Sanoat mahsulotlarining oʻsish surʼati, foizda	107,0%	107,1%	107,0%
5	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaliklarida ishlab chiqarishning oʻsish surʼati, foizda	103,9%	104,0%	104,1%
6	Chakana tovar aylanmasining oʻsish surʼati, foizda	106,5%	106,8%	107,1%

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyatining viloyat mahalliy budjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Mahalliy reja
JAMI		**1 410 859 828**
1	Foyda solig‘i	247 090 900
2	Aylanmadan olinadigan soliq	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	764 803 730
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	
5	Aksiz solig‘i jami	69 837 298
5,1	*alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)*	*0*
5,2	*pivo*	*0*
5,3	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*69 837 298*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	76 454 900
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	46 249 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
13	Davlat boji	80 447 000
14	Yig‘imlar	33 228 000
15	Jarimalar	92 749 000

16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Jizzax viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilariga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy byudjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**2 388 673 691**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 342 176 691**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	46 497 000
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	125 357 729
1	**Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi**	**182 900 410**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**182 900 410**
	shundan:	
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	536 647
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
2	**Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**93 450 234**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**93 450 234**
	shundan:	
	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	905 500
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3	**Sogʻliqni saqlash boshqarmasi**	**993 012 684**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**966 062 684**
	shundan:	
	Viloyat sogʻliqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	3 650 718
	Respublika oʻrta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	1 859 840
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	0
	Sogʻlikni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	354 143
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	26 950 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**45 556 199**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**45 556 199**

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
5	**Maʼnaviyat va maʼrifat markazi**	**3 104 360**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 104 360**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**89 359 498**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**89 359 498**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 765 842**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 765 842**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boshqarmasi**	**11 522 851**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 522 851**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
9	**Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi**	**52 706 933**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**52 706 933**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**110 526 957**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**98 556 957**
	shundan:	
	Sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	43 450 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	11 970 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 400 445**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 400 445**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi boshqarmasi**	**42 885 968**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**42 885 968**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**1 077 221 704**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	**555 477 103**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	1 155 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	1 700 000
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	9 928 678
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	8 996 576
	Kadastr agentligi Jizzax viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	2 276 831
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	521 744 601
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	125 357 729
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 489 133**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 489 133**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 271 075**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 271 075**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**6 144 093**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 144 093**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**8 375 991**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 375 991**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**10 816 902**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 816 902**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**75 163 994**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**75 163 994**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Viloyat hokimligi**	**42 938 236**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	**35 361 236**
	shundan:	
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi boʻlimlari	244 705
	Fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish oʻquv kursi	568 209
	Zaxira jamgʻarmasi	16 651 217
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	638 141
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qoʻllab-quvvatlash jamoat fondi	4 331 725
	Avtobus yoʻnalishlarini subsidiyalash	2 992 392
	Issiqlik taʼminoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	1 750 000
	Issiqlik taʼminoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qoʻllash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	242 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	7 577 000
21	**Viloyat hokimligi obodonlashtirish xarajatlari**	**11 697 762**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 697 762**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
22	**Viloyat hokimligi (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tashkilotlar)**	**18 735 592**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**18 735 592**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	4 769 534
	Axborot-kutubxona markazlari	3 257 484
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	9 500 879
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
23	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**13 333 087**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**13 333 087**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
24	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**3 392 108**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 392 108**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
25	**Oila va xotin-qizlar qoʻmitasinining hududiy boshqramasi**	**6 048 419**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 048 419**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
26	**Boshqa tashkilotlar**	**3 597 815**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 597 815**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me'yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to'lovchilar	Jizzax shahri	Arnasoy tumani	Baxmal tumani	G'allaorol tumani	Sh.Rashidov tumani	Do'stlik tumani	Zomin tumani	Zarbdor tumani	Zafarobod tumani	Mirzacho'l tumani	Paxtakor tumani	Forish tumani	Yangiobod tumani
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i****	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	100%	86%	57%	0%	100%	57%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	100%	0%	14%	43%	100%	0%	43%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
2	**Foyda solig'i*****	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	50%	30%	0%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	50%	70%	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
4	**Pivo**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Viloyatning viloyat	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%

		byudjetiga	HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	100%	98%	19%	3%	100%	92%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	100%	0%	2%	81%	97%	0%	8%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	30%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	70%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
8	**Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman (shahar)lar byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
10	**Davlat ulushi bo'yicha**	Tuman (shahar)lar	YST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%

	dividendlar	byudjetiga	HST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga	YST	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
			HST	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman (shahar)lar byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
		Viloyatning viloyat byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
12	**Davlat boji**	Tuman (shahar)lar byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Viloyatning viloyat byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
13	**Jarima**	Tuman (shahar)lar byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Viloyatning viloyat byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman (shahar)lar byudjetiga		0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%	0%
		Viloyatning viloyat byudjetiga		100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman (shahar)lar byudjetiga		50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%
		Viloyatning viloyat byudjetiga		50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman (shahar)lar byudjetiga		50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%
		Viloyatning viloyat byudjetiga		50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%	50%

HST - Hududiy soliq to‘lovchilar *YST - Yirik soliq to‘lovchilar*

Izoh.

** Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

*** Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

**** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Viloyat mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari rejasi

ming soʻmda

Hudud nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	shundan,
		Oʻtkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)
JAMI	**1 103 171 592,0**	**129 778 000,0**
Viloyat budjeti	977 813 863,0	129 778 000,0
Jizzax shahri	0,0	
Arnasoy tumani	38 494 307,0	
Baxmal tumani	0,0	
Gʻallaorol tumani	0,0	
Sh.Rashidov tumani	0,0	
Doʻstlik tumani	5 989 462,0	
Zomin tumani	0,0	
Zarbdor tumani	8 807 591,0	
Zafarobod tumani	9 885 516,0	
Mirzachoʻl tumani	22 591 054,0	
Paxtakor tumani	0,0	
Forish tumani	0,0	
Yangiobod tumani	39 589 799,0	

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Viloyat mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming soʻmda

Hudud nomi	Mahalliy budjetlarning jami daromadlari	Shundan,		Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlari	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
JAMI	**3 626 726 092,0**	**2 523 554 500,0**	**1 103 171 592,0**	**3 626 726 092,0**
Viloyat budjeti	2 388 673 691,0	1 410 859 828,0	977 813 863,0	2 388 673 691,0
Jizzax shahri	139 404 169,0	139 404 169,0	0,0	139 404 169,0
Arnasoy tumani	74 795 700,0	36 301 393,0	38 494 307,0	74 795 700,0
Baxmal tumani	105 546 246,0	105 546 246,0	0,0	105 546 246,0
Gʻallaorol tumani	129 368 768,0	129 368 768,0	0,0	129 368 768,0
Sh.Rashidov tumani	118 921 097,0	118 921 097,0	0,0	118 921 097,0
Doʻstlik tumani	81 735 687,0	75 746 225,0	5 989 462,0	81 735 687,0
Zomin tumani	128 256 483,0	128 256 483,0	0,0	128 256 483,0
Zarbdor tumani	84 859 483,0	76 051 892,0	8 807 591,0	84 859 483,0
Zafarobod tumani	68 964 563,0	59 079 047,0	9 885 516,0	68 964 563,0
Mirzachoʻl tumani	75 356 320,0	52 765 266,0	22 591 054,0	75 356 320,0
Paxtakor tumani	80 012 669,0	80 012 669,0	0,0	80 012 669,0

Forish tumani	86 716 417,0	86 716 417,0	0,0	86 716 417,0
Yangiobod tumani	64 114 799,0	24 525 000,0	39 589 799,0	64 114 799,0

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-032-3-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori

ming soʻmda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
	JAMI	**14 500 000,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	**7 420 000,0**
2	Jizzax shahri	**1 222 000,0**
3	Arnasoy tumani	**298 000,0**
4	Baxmal tumani	**571 000,0**
5	Gʻallaorol tumani	**821 000,0**
6	Sh.Rashidov tumani	**756 000,0**
7	Doʻstlik tumani	**392 000,0**
8	Zomin tumani	**737 000,0**
9	Zarbdor tumani	**431 000,0**
10	Zafarobod tumani	**359 000,0**
11	Mirzachoʻl tumani	**346 000,0**
12	Paxtakor tumani	**398 000,0**
13	Forish tumani	**483 000,0**

14	Yangiobod tumani	**266 000,0**